

Raqamli texnologiyalar vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik H I S O B O T

2024-yil davomida Vazirlikning Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali **6 ta** murojaat kelib tushgan.

Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali (**pm.gov.uz**) orqali **2 ta**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) orqali **1 ta**, Raqamli texnologiyalar vazirligiga aloqa kanallar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri **3 ta** murojaat yuborilgan. Mazkur murojaatlar tegishli tartibda o‘rganib chiqilgan va ularning vajlari to‘laqonli qanoatlantirilgan hamda bu haqda murojaatchilarga javob xatlari yuborilgan.

Jumladan, 2024-yil fevral oyida tizimdagi “UZIMPEKSALOQA” MChJning murojaati tegishli tartibda o‘rganilib, to‘plangan hujjatlar huquqni muhofaza qilish idoralariga yuborilgan.

“O‘zbektelekom” AK filiali mas‘ullari ustidan yo‘llangan murojaatni o‘rganish davomida fuqaro tomonidan jahl ustida murojaat yo‘llaganligi, “O‘zbektelekom” AK rahbari va xodimlariga e‘tirozlari yo‘qligini ma’lum qilganligi sababli o‘rganish ishlari o‘tkazilmagan.

“O‘zbekiston pochta” Qashqadaryo filiali mas‘ullari ustidan yozilgan murojaati ishchi guruh tomonidan o‘rganilgan va murojaatchiga javob xati yuborilgan.

Davlat feldyegerlik xizmati sobiq bo‘lim boshlig‘i ustidan murojaat bo‘yicha huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan tegishli tartibda o‘rganilgan hamda murojaatchiga qanoatlantiruvchi javob xati yuborilgan.

Shuningdek, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali rahbar xodimlarining faoliyati bo‘yicha murojaat o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilgan hamda huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qilish idoralariga berilgan.

Vazirlikning ishonch telefon raqamiga TATU Farg‘ona viloyati bo‘yicha axborot texnologiya texnikumiga tegishli bo‘lgan binoning noqonuniy o‘zlashtirilishi bo‘yicha kelib tushgan xabarga asosan bo‘linma tomonidan o‘rganish o‘tkazilgan. O‘rganishlar davomida to‘plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qilish idoralariga yuborilgan.